

MADANIYATLARARO MULOQOTDA KONFERENSIYA TARJIMASI

Mahliyo Muzaffarova Muzaffar qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti talabasi*

*E-mail: mahliyomuzaffarova26@gmail.com
+99897-542-61-12*

Annotatsiya: *Maqolada globallashuv jarayonida konferensiya tarjimasining ahamiyati hamda uning lingvistik va madaniy omillar bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Xalqaro anjumanlarda samarali muloqotni ta’minlashda tarjimonning madaniy kompetensiyasi, idiomalar, metaforalar, diplomatik iboralar va noverbal signallarni to‘g‘ri talqin qilish zarurligi misollar orqali yoritiladi. Tadqiqot konferensiya tarjimonining vazifasi so‘zlarni tarjima qilishdan tashqari, nutqning mazmuni, ohangi va madaniy kontekstini aniq yetkazishdan iborat ekanini ta’kidlaydi.*

Kalit so‘zlar: *ketma-ket tarjima, madaniy kompetensiya, idiomalar, noverbal signallar, diplomatik nutq, pragmatik ma’no, global muloqot.*

Annotation: *The article analyzes the importance of conference interpreting in the context of globalization and its connection with linguistic and cultural factors. It highlights, through examples, the necessity for interpreters to accurately interpret cultural competence, idioms, metaphors, diplomatic expressions, and nonverbal signals to ensure effective communication at international conferences. The study emphasizes that the task of a conference interpreter is not limited to rendering words but also involves conveying the meaning, tone, and cultural context of the speech accurately.*

Keywords: *cultural competence, idioms, nonverbal signals, diplomatic discourse, pragmatic meaning, global communication.*

So‘nggi yillarda globallashuv jarayonining jadallashuvi dunyo miqyosida siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy hamkorlikning yangi bosqichga ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. Xalqaro tashkilotlar soni oshib, dunyoning turli burchaklarida konferensiyalar, forumlar, sammitlar, muzokaralar va ilmiy anjumanlar muntazam o‘tkazilmoqda. Bunday ko‘lamli jarayonlar turli tillarda so‘zlashuvchi insonlarning samarali muloqotini ta’minlashga ehtiyoj tug‘diradi. Ana shu ehtiyojni to‘ldiruvchi asosiy kasblardan biri - konferensiya tarjimoni. Yangi Zelandiya sinxron tarjimonlari tomonidan konferensiya tarjimasiga shunday ta’rif beriladi: “Konferensiya tarjimasi - bu xalqaro konferensiyalar, uchrashuvlar va muzokaralarda real vaqt rejimida og‘zaki tarjima xizmatlarini ko‘rsatadigan malakali

mutaxassislarni o‘z ichiga olgan yuqori darajada ixtisoslashgan tarjima turi. Konferensiya tarjimonlari lingvistik to‘siqlarni bartaraf etadi, bu esa turli tillarda so‘zlashadigan ishtirokchilar o‘rtasida uzluksiz muloqotni ta‘minlaydi. Ushbu xizmat samarali madaniyatlararo hamkorlikni rivojlantirish va muvaffaqiyatli global biznes bitimlarini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi.”⁹⁴

Yuqorida aytganimizdek, konferensiya tarjimonining vazifasi faqat so‘zlarni bir tildan ikkinchi tilga ko‘chirish bilan cheklanmaydi. U til va madaniyatlar o‘rtasida ko‘prik bo‘lib, nutq mazmuni, pragmatik maqsadi, ohang va madaniy kontekstning to‘liq yetkazilishini ta‘minlaydi. Turli madaniyat vakillari o‘rtasida tushunmovchilik yuzaga kelmasligi ko‘p jihatdan tarjimonning madaniy kompetensiyasiga bog‘liq. Shu bois konferensiya tarjimasi sohasida tarjimonning lingvistik bilimlari bilan bir qatorda madaniy sezgirligi ham muhim omil hisoblanadi.

Konferensiya tarjimasi - xalqaro yig‘ilish yoki anjumanda nutqni tezkor, ravon va aniq tarjima qilish jarayonidir. Uning ikki asosiy turi mavjud: ketma-ket tarjima va sinxron tarjima. Sinxron tarjima yuqori darajada e‘tibor, tezkor idrok va murakkab fikrlarni bir zumda qayta kodlashni talab qiladi. Ketma-ket tarjima esa nutqning asosiy mazmunini eslab qolish, qisqa yozuvlar orqali qayta tiklash va aniq yetkazishni o‘z ichiga oladi.

Har ikki turda ham tarjimon nutq mazmunini emas, balki so‘zlovchining niyatini, ohangini, hissiyotini, ijtimoiy-madaniy fonini to‘g‘ri yetkazishi lozim. Bu jarayonda madaniy tafovutlarni anglash alohida o‘rin tutadi.

Har bir til ma‘lum bir madaniyatning mahsuli bo‘lib, til birliklarida shu jamiyatning qadriyatlari, ijtimoiy normasi, tarixiy tajribasi mujassam bo‘ladi. Shu sababli konferensiya tarjimoni ikki madaniyat o‘rtasida vositachilik qiladi. Masalan:

metaforalar, maqollar, diniy yoki urf-odatlariga oid iboralar, diplomatik jumlar, nutq ohangi va uslub, jest va imo-ishoralar madaniy kontekstga bog‘liq bo‘lib, turli jamiyatlarda bir xil qabul qilinmaydi.

Agar tarjimon bunday farqlarni hisobga olmasa, kommunikativ xatolar yuz berishi mumkin. Tilning ko‘plab elementlari madaniy mazmunga ega. Masalan, ingliz tilidagi “kick off”, “silver lining”, “break the ice” kabi iboralar boshqa madaniyatda so‘zma-so‘z tarjima qilinsa tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Konferensiya sharoitida bunday iboralarni kontekstga mos ekvivalent bilan almashtirish zarur. Ingliz tilidagi “kick off the meeting” iborasi so‘zma-so‘z “uchrashuvni tepib boshlash” degani bo‘ladi. Ammo madaniy ma‘nosi: “Uchrashuvni boshlash.” Tarjimon mazmunni, metaforani emas, kommunikativ vazifani yetkazishi zarur.

⁹⁴ **Simultaneous Interpreters New Zealand. (n.d.). What is conference interpreting?**
<https://www.simultaneousinterpreters.co.nz/conference-interpreting>

Tarjimonning vazifasi - tinglovchida asl nutqdagi ma’no va ta’sirni yaratish. G’arb madaniyatlarida nutq ko‘pincha bevosita, aniq va qisqa bo‘ladi. Sharq madaniyatlarida esa muloyim gapirish, bilvosita murojaat, e’tiborli jumlar ustuvordir. Tarjimon so‘zlarni tarjima qilish bilan cheklanmay, nutqning rasmiylik darajasi, pragmatik maqsadi va so‘zlovchining ijtimoiy mavqeini ham hisobga olishi kerak.

Xalqaro anjumanlarda ishlatiladigan ba’zi terminlar va diplomatik iboralar muayyan davlatga xos bo‘lishi mumkin. Masalan, Yevropa Ittifoqi hujjatlaridagi atamalar yoki BMT rezolyutsiyalaridagi iboralar boshqa madaniyatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri muvofiq kelmaydi. Tarjimon bunday holatlarda neytral variantlardan foydalanishi kerak. Xalqaro sog‘liqni saqlash konferensiyasida professor ingliz tilida shunday deydi: “This virus spreads like wildfire.” Agar tarjimon uni so‘zma-so‘z “Bu virus o‘rmon yong‘inidek tarqaladi” deb tarjima qilsa, ba’zi madaniyatlarda bu ifoda keskin va qo‘rqituvchi bo‘lib tuyulishi mumkin. Bu vaziyatda tarjimondan pragmatik moslashtirish talab qilinadi: “Virus juda tez sur’atlarda tarqalmoqda.” kabi tarjima qilish maqsadga muvofiqdir.

Jestlar, tana tilidagi holatlar ham madaniyatga qarab turlicha talqin qilinadi. Ba’zi jamiyatlarda ko‘zga tik qarash hurmat belgisi bo‘lsa, boshqalarda bu qo‘pol munosabat sifatida qabul qilinadi. Sinxron tarjimada noverbal ma’lumotlar ham kontekstni tushunishga yordam beradi. Yevropa spikerlari qo‘l harakati, imo-ishorani ko‘p ishlatadi. Masalan, boshni engil qimirlatib: “It’s fine.” Ba’zi Sharq davlatlarida bu imo-ishora “shubha” yoki “aniq emas” degan ma’noni anglatishi mumkin. Tarjimon bunday nozikliklarni sezib, tinglovchiga tushunarli tarzda ohangni to‘g‘ri yetkazishi kerak.

Tarjimon nutqning maqsadini to‘g‘ri baholay olishi kerak. Masalan, tanqid, hazil, diplomatik ogohlantirish yoki maqtoov kabi pragmatik elementlar madaniy kontekstda turli ta’sirga ega bo‘ladi.

Madaniy tafovutlarni hisobga olgan holda tarjimon ba’zi joylarda: kompensatsiya, kontekstual almashtirish, izohlovchi tarjima, umumlashtirish kabi usullarni qo‘llaydi. □

Konferensiya tarjimoni madaniy tafovutlar tufayli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noqulay holatlarni yumshatishi kerak. Bunda u betaraflikni saqlashi, tarafkashlik qilmasligi, axloqiy me’yorlarga rioya qilishi lozim.

Bir xalqaro iqtisodiy forumda ingliz tilidagi “We are at a crossroads” iborasi so‘zma-so‘z tarjima qilinganda ayrim delegatlar vaziyatni halokatli deb tushungan. Aslida bu ibora “muqim qaror qabul qilinadigan burilish nuqtasida turibmiz” degan ma’noni bildiradi. Madaniy kontekstni bilgan tarjimon bunday xatoga yo‘l qo‘ymaydi.

G’arb auditoriyasi uchun kulgili bo‘lgan hazil Sharq xalqlarida mos tushmasligi mumkin. Tarjimon hazil mazmunini tushuntiruvchi yoki yumshoqroq variant bilan almashtirishi maqsadga muvofiq.

“Sanctions”, “intervention”, “national interests” kabi so‘zlarning har bir davlatda o‘z diplomatik ohangi bor. Tarjimon bunday iboralarni ehtiyotkorlik bilan, neytral ma’noda yetkazishi zarur. Kenji Nakamura shunday deb yozadi: “Bugungi globallashgan dunyoda, muloqot chegaralar bo‘ylab tarqaladigan bo‘lsa, til to‘siqlari ko‘pincha samarali o‘zaro ta’sirga asosiy to‘siq bo‘lib qoladi. Bu, ayniqsa, yuqori darajadagi konferensiyalar, xalqaro uchrashuvlar va aniq muloqot muhim bo‘lgan diplomatik muzokaralarda juda muhimdir. Shunday qilib, konferensiya tarjimonlarining roli har qachongidan ham muhimroq bo‘lib qoldi. Konferensiya tarjimonlari yuqori malakali mutaxassislar bo‘lib, ularning vazifasi turli tillarda so‘zlashadigan odamlar bir-biri bilan samarali va aniq muloqot qila olishlarini ta’minlashdir. Ularning roli oddiy tarjimadan ancha uzoqqa boradi; ular nafaqat so‘zlarni, balki madaniy nuanslarni, his-tuyg‘ularni va niyatlarni ham talqin qiladilar.”⁹⁵

Turli madaniyatlar kontekstida konferensiya tarjimasi - juda murakkab, ko‘p qirrali va yuqori mas’uliyat talab qiladigan jarayondir. Tarjimonlar nafaqat til bilimdonlari, balki madaniyatlararo muloqot mutaxassislari hisoblanadi. Ular nutqning mazmuni, maqsadi, ohangi va madaniy kontekstini aniq anglab, har ikki tomonga to‘g‘ri yetkazadi.

Madaniyatlararo muloqotning ahamiyati yanada ortib borayotgan bir paytda konferensiya tarjimonining vazifasi yanada mas’uliyatli bo‘lmoqda. Shuning uchun tarjimonlar doimiy ravishda o‘z bilimini yangilashi, dunyo siyosati, madaniy jarayonlar, til o‘zgarishlari va professional etika bo‘yicha malakasini oshirib borishi zarur. Shundagina ular turli madaniyatlar o‘rtasida chinakam ko‘prik vazifasini bajara olishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev, B. Q. (2020). Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Bakhtiyorov, M. (2021). Madaniyatlararo kommunikatsiya va tarjima. Toshkent: Universitet nashriyoti.
3. Globibo. (n.d.). Conference interpreter insights: Bridging language barriers. Globibo Blog.
<https://globibo.blog/conference-interpreter-insights-bridging-language-barriers/>
4. Kamilov, J. (2019). Tarjima jarayonida madaniy faktorlarning o‘rni. Filologiya masalalari jurnali, 4(2), 45–52.
5. Simultaneous Interpreters New Zealand. (n.d.). What is conference interpreting?
<https://www.simultaneousinterpreters.co.nz/conference-interpreting>

⁹⁵ Globibo. (n.d.). Conference interpreter insights: Bridging language barriers. Globibo Blog.
<https://globibo.blog/conference-interpreter-insights-bridging-language-barriers/>

6. Suyunov, A. (2018). Xalqaro anjumanlarda tarjimonning nutq kompetensiyasi. Til va tarjima, 3(1), 22–28.
7. Umarova, S. (2022). Konferensiya tarjimasida sinxron usulning o‘ziga xosliklari. Lingvistika va tarjima tadqiqotlari, 6(3), 71–78.
8. Turaevich, A. M. (2022, January). LONELINESS AND ABSURDITY IS THE BASIS OF ALBER KAMYU’S CONCEPT OF ART. In European journal of science archives conferences series/Konferenzreihe der europäischen Zeitschrift für Wissenschaftsarchive (Vol. 2013, p. 30).
9. Asadov, M. (2025). The concept of individualism and absurdity in Camus’ the stranger. American Journal of Philological Sciences, 5(03), 119-123.
10. Asadov, Mahmadiyor. (2022). Existential interpretation of the motive of “loneliness” in the work “the stranger” by Albert Camus. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. 12. 1-6.